



HU SHI AND FITRAT'S IDEALOGICAL VIEWS ON LANGUAGE REFORMS IN POETRY

Ozodjon Mardiyevich Ochilov

Associate Professor, PhD, Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: This article analyzes the ideological views of Hu Shi and Fitrat on language reforms in poetry in the early 20th century. Hu Shi advocated for reforms in Chinese literature through the use of the Baihua language, while Fitrat aimed to adapt Uzbek literature to national and modern requirements. The article compares the approaches of both scholars to poetry and language reforms, and their impact on cultural and social changes. This analysis provides deeper insight into the effects of language reforms on literature and national identity across different cultures.

Key words: Hu Shi, Fitrat, Chinese literature, Uzbek literature, early 20th century, language reforms, poetry, cultural integration, national identity, literary renewal.

HU SHI VA FITRATNING SHE'RIYATDA TIL ISLOHOTLARIGA OID G'UYAVIY QARASHLARI

Ozodjon Mardiyevich Ochilov

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hu Shi va Fitratning 20-asr boshlarida she'riyatda til islohotlariga oid g'uyaviy qarashlari tahlil qilinadi. Hu Shi, Xitoy adabiyotini yangilashga qaratilgan baihua tilidagi islohotlarini ilgari surgan bo'lsa,

Fitrat O'zbekiston adabiyotini milliy va zamonaviy talablarga moslashtirishga intilgan. Maqolada ikkala adibning she'riyat va til islohotlaridagi yondashuvlari, ularning madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi. Bu tahlil orqali turli madaniyatlarda til islohotlarining adabiyot va milliy identitetga ta'sirini chuqurroq tushunish mumkin.

Kalit so'zlar: Hu Shi, Fitrat, Xitoy adabiyoti, O'zbek adabiyoti, 20-asr boshlari, til islohotlari, she'riyat, madaniy integratsiya, milliy identitet, adabiy yangilanish.

Kirish. O'tgan asrning boshlarida Xitoy va O'zbekiston hududlarida kechgan milliy uyg'onish harakatlari ikki mamlakatda ham keskin adabiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga turtki bo'ldi. Bu o'zgarishlar orqali ikki mamlakatning adabiyotshunos va faylasuflari yangi, zamonaviy va milliy o'zlikni ifoda etuvchi adabiyot yaratish borasida katta ishlarni amalga oshirishga kirishdilar. Xitoy adibi Hu Shi (1891-1962) va o'zbek adabiyotshunos olimi Fitrat (1886-1938) zamondosh bo'lib, har ikkisi ham o'zlari yashab turgan jamiyatni asosan g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan modernizatsiya qilish harakatining eng faollaridan bo'ldi. Ular birinchillardan bo'lib xalq ongini isloh qilish avvalambor adabiyotni, xususan she'riyatni, uning tilini isloh qilishdan boshlash zarur ekanligiga e'tibor qaratishdi va bu borada bir-biriga o'xshash bo'lgan qarashlarini faol ilgari surishdi. Hu Shi Xitoyda "Yangi she'r" harakatini boshlab, she'riyatda oddiy, xalqchil uslubdagi tilni targ'ib qilgan bo'lsa, Fitrat ham o'z yurtida adabiyotni xalqchilashtirish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish yo'lida kurashdi. Har ikki adibning yondashuvlari o'z davrining talablari hamda muammolariga javob berishga qaratilgan bo'lib, ular tomonidan amalga oshirilgan bir qator islohotlar adabiyot va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Mavzuning dolzarbligi. Ikki adibning yangi she'r yaratishda til islohotlariga oid nazariy fikrlarini qiyosiy o'rganish quyidagicha ahamiyat kasb etadi: Hu Shi va Fitrat o'z mamlakatlarida til islohotlarini ilgari surish orqali til va adabiyotni modernizatsiya qilishga urinishgan. Ular o'rtasidagi qiyosiy tadqiqot turli madaniyatlardagi til islohotiga bo'lgan yondashuvlarni tushunishga yordam beradi,

bu esa madaniyatlararo ilmiy hamkorlik va tajriba almashinuvi uchun yangi yo‘llarni ochadi; Hu Shi va Fitratning til islohotlari nafaqat tilning shakli va strukturasiga, balki kengroq sotsial va madaniy o‘zgarishlarga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Qiyosiy tahlil orqali, til islohotlarining turli madaniy va ijtimoiy tizimlardagi ta‘siri qanday farqlanishi yoki o‘xshashligi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin. Bu, til siyosati va madaniy o‘zgarishlar o‘rtasidagi aloqani yanada yaxshi tushunishga imkon beradi; til islohotlari milliy identitetni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, Hu Shi va Fitratning har biri o‘z mamlakatlari uchun til islohotlarini qanday qo‘llaganini tahlil qilish, til va identitetning qayta qurilish jarayonlarini solishtirish imkonini beradi. Bu, milliy identitetni saqlab qolish va yangilash strategiyalarini o‘rganishda foydali bo‘ladi; Ularning til islohotlari adabiyotda muhim o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga zamin yaratgan, qiyosiy tahlil orqali til islohotlarining adabiy ijodkorlik metodlariga ta‘siri va uning adabiy yangilanish bilan qanday integratsiya qilinganini aniqlashga yordam beradi; qiyosiy tahlil tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalaridagi ilmiy nazariyalar va metodologiyalarni boyitish hamda til islohotlarini ilmiy jihatdan qanday tushunish va baholash mumkinligi haqida yangi nazariyalar va yondashuvlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism. Hu Shi 20-asr xitoy adabiyotshunosligi tarixida muhim shaxslardan bo‘lib, o‘zining adabiy nazariyalari bilan xitoy yangi she‘riyatining shakllanishida alohida o‘ringa ega. Hu Shi o‘smirlik yillarida keng ko‘lamdagi xitoy an‘anavi madaniyatiga oid bilimlarni qabul qildi va klassik she‘riyatning ta‘sirida bo‘ldi. U asosan konfutsiychilik ta‘limotiga oid hamda klassik adabiyot namoyondalarining kitoblarni qunt bilan o‘zlashtirgan va bu borada juda katta bilimga ega edi. Keyinchalik uning yangi she‘riyat nazariyasiga oid keskin qarashlarning rivojlanishi yosh adibning an‘anaviy paradigmalarga nisbatan pozitsiyasi o‘zgara boshlaganligidan dalolat beradi. 1910 yil Hu Shi davlat tomonidan ajratilgan grant asosida AQSHga o‘qish uchun jo‘natiladi va shu tariqa unda G‘arbni o‘rganish uchun katta imkoniyat yuzaga keladi. Adib Amerikadagi

yetti yillik o'qishi davrida uzluksiz ravishda yangidan-yangi nazariyalar bilan tanishib bordi va ularni xitoy an'anaviy adabiyoti bilan omuxtalashtirishga harakat qildi. Hu Shi o'qib-izlanishlari davomida yig'gan tajribalari asosida *baihua*¹ she'riyati nazariyasini ishlab chiqdi, bu keyinchalik *baihua* she'riyatining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi.

Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyati o'zbek adabiyoti tarixining eng yorqin sahifalaridan hisoblanadi. U tarixchi, adabiyotshunos, filolog, tarjimon, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori. U dastlabki ta'limni eski maktabda, keyinchalik Buxorodagi Mir Arab madrasasida davom ettiradi. 1908-1913 yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan va qizg'in ijod qilgan. Fitrat Istanbulda o'qishi davrida Turkiyada "Yosh turklar" faoliyati avjiga chiqqan bo'lib, bunday inqilobiy muhit yosh Fitratga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, san'ati, tarixini chuqur va atroflicha o'rganadi, ilg'or taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari, turk adabiyoti orqali esa G'arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G'arb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyoti o'rtasidagi farqlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, uning sabablarini teran anglay boshlaydi. Fitratning adabiy merosi rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o'zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she'r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy muammolarning o'zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo'shdi.

Hu Shi va Fitrat dyarli bir vaqda dunyoga kelishdi, ikkalasi ham boshlang'ich bilimlarini an'anaviy ta'lim tizimi asosida olib, klassik adabiyotni chuqur o'rganishdi, o'smirlikda biri AQSh, birisi Turkiyada tahsil oldi, har ikkalasining ham adabiyotga qarashlari xorijdagi o'qish davrida shaklanna boshladi, Hu Shi G'arbning yangi nazariyalari bilan bevosita tanishishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, Fitrat Turkiyada "Yosh turklar" faoliyati orqali bunga erishdi, ikkala adib ijod bilan

¹ 白话 — xalq so'zlashuv tili

bir qatorda maʼrifatparvarlik faoliyati — pedagoglik bilan ham shugʻullanishdi. Ularning hayot taqdiri ikki xil kechdi: Hu Shi umrining oxirigacha oʻz yurtining adabiyoti, maʼrifati va tashqi siyosatining rivojiga ulkan hissa qoʻshishga muvaffaq boʻldi, Fitrat esa mustabid mustamlakachi tuzumning repressiyasi qurboni boʻldi va uning sermahsul faoliyati ayni gullagan paytda toʻxtatildi.

Hu Shining baihua (xalq tili) targʻiboti. Amerikadagi oʻqishi davomida Hu Shining baihua sheʼriyati borasidagi izlanishlari nazariya va amaliyot bilan hamohang kechganligi kuzatiladi. U mazkur davrdagi ijodida sheʼriyatning anʼanaviy qonuniyatlardan voz kecholmagan boʻlsada, oʻzining nazariy qarashlarida bunday sheʼriyatning murakkabligi haqida gapirishni boshlagan va ayrim masalalar yechimiga doir takliflar bildirayotgan pallaga yetgan edi. “Yangi yoshlar” gazetasining 1916 yil 1 oktyabr sonida Xu Shining Chen Duxiuga yozgan xati eʼlon qilindi. Unda quyidagilar bayon etilgan: 年来思虑观察所得, 以为今日欲言文学革命, 须从八事入手”, 而这“八事”中, 前五事均与语言相关: “不用典”, “不用陈套语”, “不讲对仗”, “不避俗字俗语”, “须讲求文法之结构” [3, b.2], yaʼni “Yillar davomida kuzatganlarim haqida oʻylab, bugun bir narsani aytmoqchiman: adabiy inqilob sakkiz amaldan iborat boʻlmogʻi kerak. Shul sakkiz amaldan dastlabki beshtasi bevosita til bilan aloqadordir: “mumtoz syujetlardan foydalanmaslik”, “eski qolip birikmalar (klishe)dan foydalanmaslik”, “satrlarning oʻzaro ohang mosligiga eʼtibor qaratmaslik”, “xalqona soʻz va iboralardan qochmaslik”, “gaplarning grammatik tuzilishiga alohida eʼtibor qaratish”. Bir oz oʻtib Chen Du-syu oʻzining “Adabiy inqilob haqida” asarida Xu Shining gʻoyalarini qoʻllab-quvvatladi va mumtoz adabiyotning qatʼiy qoidalarini, xalq uchun tushunarsizligi va befoyda ekanligini qoraladi hamda adabiyot bir guruh aslzodalarga emas balki butun xalqqa tegishli ekanligini taʼkidladi. [4, b.96] Xu Shi tomonidan ilgari surilgan shu kabi gʻoyalar Xitoy yangi adabiyoti paydo boʻlishining muhim belgilari sifatida koʻriladi. Darhaqiqat, adibning faqat til muammolariga eʼtibor qaratish nuqtai nazaridan qarasak, bunday inqilobiy gʻoyalar unda allaqachon paydo boʻlganligini koʻrish mumkin. Xushining 1911 yilda yozilgan kundaliklaridan buni anglash qiyin emas. [5, b.61] U 1915 yil AQSHda

tahsil olayotgan paytlarida ham til islohatlari borasidagi muhokakmalarda yanada faol qatnasha boshlaganligi kuzatiladi.[6, b.454] Bu Xu Shi til masalasini islohotlarning eng asosiy qismi sifatida qaraganidan dalolat beradi.

Til va yozuv birligiga erishish. Nutq va yozuvning uzoq vaqt davomida bir-biridan uzoqlashuvi tufayli yozma til sekin astalik bilan doimo faol va boy bo'lgan shevalardan xoli tilga aylanib bordi. Mumtoz she'riyatning eng asosiy konsepsiyasi, u nafis bo'lishi kerak, nafislikka esa turli sheva, jargonlardan kirib kelgan so'zlar zarar yetkazadi deb hisoblangan. Shu sababdan she'riyat muntazam ravishda ulardan "tozalanib" borikldi va natijada u oddiy xalq tilidan butunlay uzoqlashdi, ularni o'qib tushunish tobaro murakkablashib bordi. Hu Shi 19-asr oxirlarida Huang Zunxian tomonidan ilgari surilgan "nimani so'zlasam, shuni yozaman" shiorini qo'llab-quvvatlagan holda she'riyatda so'zlashuv tili, shevalar va dialektlar aks etishi kerakligini ta'kidlaydi. U til va yozuv birligiga erishish maqsadida "*she yozish matn yozishdek bo'lishi kerak*", "*she'r yozish so'zlash kabi bo'lishi kerak*" singari she'riyat tili islohotiga qaratilgan g'oyalarini faol targ'ib qildi. Uning "She'r matn kabi bo'lishi kerak" g'oyasi she'r yaratish jarayonida aniq belgilangan qoidalarga rioya qilinmasligi, she'r matn yoki badiiy esse kabi tabiiy tashkil etilgan bo'lishi kerakligini anglatadi. "She'r yozish so'zlash kabi bo'lishi kerak" g'oyasi tinglovchi yoki o'quvchining she'r matni bilan yanada yaqinroq aloqa o'rnatish imkoniyatini yaratish uchun uning sodda va tabiiy qurilishga intilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv she'riyatni yanada demokratik va kengroq auditoriyaga murojaat qiluvchi vosita darajasiga ko'tarib, sodda va samimiy ifoda uslublarini qo'llashni targ'ib qiladi.

"Tirik adabiyot" va "o'lik adabiyot": Hu Shi bu haqda shunday yozadi: *Xayf, so'nggi besh yuz yil davomida yarim o'lik qadimgi matnlar, yarim o'lik she'riyat va qofiyalangan so'zlar jonli adabiyot o'rnini qayta egallab oldi, tirik adabiyotning zaiflashuvi, umidsizligi bugungi kunga qadar davom etmoqda*[1, b.865]. Hu Shi so'nggi besh yuz yil ichida xitoy adabiyoti, ayniqsa qadimgi uslubdagi matnlar va she'riyatning ahvolini keskin tanqid qildi. She'riyat "*Yarim jonsiz*" ("半死之古文" va "半死之诗词") holga kelib qolganligi va zamonaviy kontekstda avvalgidek ta'sir

kuchiga ega emasligini ta'kidlaydi. An'anaviy adabiyot bir paytlar jonli adabiyotning o'rnini egallab, yangi va jonliroq adabiyot shakllariga yo'l ochish o'rniga, tobora murakkablashib borgan qat'iy qoidalarga ega adabiyotni yaratish bilan band bo'ldi va oqibatda u ayni paytda nochor holga keldi, u zamonaviy odamning his tuyg'ularni kuylashga kuchsiz, bu xalq uchun tirik adabiyot, tirik she'r kerak, degan fikrda qat'iy turdi.

“Har bir davrning o'z adabiyoti bor” g'oyasi. Hu Shi G'arbning zamonaviy ilmiy-falsafiy ta'limotlariga asoslangan hamda evolyutsiya nazariyasiga oid yondashuvlar bilan tushuntirilgan “har bir davrning o'z adabiyoti bor” g'oyasini ilgari surdi. Hu Shi bu g'oyasi orqali Xitoyning “adabiyot inqilobi” davrida G'arbning ilmiy nazariyalaridan foydalanish kerakligiga urg'u beradi. “Evolutsiya nazariyasi” yondashuvi, adabiyotning vaqt va jamiyat sharoitlari bilan qanday o'zgarib borishini tahlil qilishda qo'llagan holda o'sha davrning madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarini aks ettiruvchi yangi adabiyot yaratish va bunda avvalambor barcha uchun tushunarli bo'lgan yagona tilni targ'ib qilish g'oyasini amalga oshirishga harakat qildi.

Baihua tarixini o'rganish. Qadimgi she'riyatdan baihua elementlarini qidirish bo'yicha chuqur o'rganish boshlandi, bu esa keyinchalik “Milliy adabiyot tarixi” va “Baihua adabiyoti tarixi”ning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qildi. Bu tajriba, qadimgi matnlarni yangi perspektivadan baholash va tushunish, hamda baihua tilining adabiyotdagi o'rni va ahamiyatini qayta ko'rib chiqish imkonini berdi.

Fitrat. Turkcha til targ'iboti. Fitrat, jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri sifatida, turk (o'zbek tili — O.Ochilov) tilining toza va aniq foydalanilishini targ'ib qildi. U arab va fors tillarining ta'siridan holi, turk tilida ilmiy va adabiy asarlar yaratishni rag'batlantirdi. Fitratning asarlari va ma'ruzalari orqali u turk tilining boy grammatik va leksik imkoniyatlarini namoyish etdi. U bu boradagi go'yalarini quyidagicha bayon qiladi:

a) men turk tilining asr tushgani va bo'yla tutqun holini o'rganganimdan... turkchaning boylig'i, kengligi, to'luqlug'i uchundir;

b) men turk ulusig'a o'z boshli (mustaqil) bir til va shu tilda yozilgan “ilm”

istayman. Turkchanning boylig'i, kengligi, to'lg'unlig'ini bilganim uchun bu ishni qilay deb ishonaman;

c) tilimizning o'z boyligi (mustaqil) bo'lib turishi uchun gaplarga va yozuvlarimiz aro kirib qolg'an yot so'zlarning o'zbekchalarini ilkimizdan kelgancha oxtarib topib ishlaylik...;

d) turkchasi topilmagan so'zlar va istilohlar bor esa, unlarni chiqarib tashlab, o'runlarini bo'sh qo'yayliq demayman, turkchasi topilmag'an so'zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchanning buyrug'i ostinda kirib qolsun; ...turkchanning gonunlarig'a bo'yunsunib yashasun. [1, b.128-129]

Fitrat milliy uyg'onish va madaniy mustaqillik g'oyalarini faol ravishda targ'ib qilar ekan, u turkiy xalqlarning madaniy va til mustaqilligini ta'minlash orqali milliy o'zlikni mustahkamlash zarurligini ta'kidladi. Bu jarayonda turk tilining muhim o'rni borligini va har bir millatning madaniy taraqqiyoti uchun ona tili bilan bog'liq masalalarni hal qilish muhimligiga katta urg'u berdi. *Fitratga ko'ra millat zamonaviy dunyoga, e'tirozlarga qaramay, kerak bo'lsa, kuch bilan kiritilishi zarur edi. O'zgarish keskin, jadal va kuch bilan amalga oshirilishi, eng muhimi, u ong inqilobi bo'lishi kerak edi.*[2; b 180] Fitrat bunday inqilobni til islohotisiz amalga oshirib bo'lmazligiga ishongan.

Eski turk adabiyotini tiklash g'oyasi. Fitrat o'z davriga kelib nafaqat ijtimoiy muloqot jarayonida, balki adabiyotda, xususan she'riyatda turkiy tilining mavqei o'ta achinarli holga kelib qolganligidan kuyundi, u eski turkiy adabiyotni imkon qadar o'rganish, uni qayta muomalaga kiritish zarur ekanligiga urg'u berdi. Fitrat arablar tomonidan Markaziy Osiyoga bosqin va undan kelib chiqqan madaniy ta'sirlar haqida o'z tashvishlarini ifoda etib arablar kelishi bilan mahalliy turk madaniyati va tilining zarar ko'rgani, jumladan eski turk adabiyotining boy merosi va yozuv tizimining yo'qolishini qoraladi. Uning fikricha, bu bosqin turk madaniyatining asosiy jihatlarini, shu jumladan diniy va adabiy an'analarni yo'qolishiga olib kelgan. Fitrat shunday yozadi: *Esiz, minglarcha esizkim, arab kelganligi sababli eski turk adabiyotining buyuk va baholi izlari so'lindi, yo'qoldi-ketdi. Ziyrak, tirishg'an, chidamli, ongli har ishning ketini tushungan arablar qaysi*

o'lkani bosib olg'anda eng ko'p shul o'lkaning eski dini, eski tili, eski bitiklari, eski asarlarinibitirug'a tushar edilar. Biz turklar arab bosqini bilan o'z harflarimiz va o'z yozuvimizni yo'qotg'ondan keyin o'z adabiyot va she'rlarimizdan ham ayrilishimiz tabiiy edi. Mana shu ayrilish sababli ko'b kerakli narsalarimizni yo'qotdik. Eski adiblarimizning she'r va shoirliq to'grusuda qanday yo'llari, qanday qarashlari bor edi, bunlarni bilmaymiz. Bunlar yo'qolg'an, qo'limizdan chiqq'andir. Eski turk adabiyoti tog'rusuda ochiq va yetarlik bilgilarimiz yo'qdir. [1, b.5-6] Fitratning yuqoridagi bayonotidan quyidagilarni anglash mumkin: arablar bosqini nafaqat turkiylarning diniy va madaniy an'analariga, balki til va yozuv tizimlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan, bu esa turkiy adabiyot rivojini deyarli to'xtatib qo'ygan; turkiylarning o'z yozuv tizimini yo'qotishi adabiy an'analarning yo'qolishiga olib keldi va bu o'z o'rnida madaniy-adabiy identitetni saqlab qolish qobiliyatini pasaytirdi; yuqorida ta'kidlangan hodisalar sabab eski turkiy shoir va adiblarning asarlarini, ularning yondashuvlari va qarashlarini o'rganish imkoniyati deyarli yo'qolgan.

Fitratning bu qarashlari til va adabiyot islohotidagi asosiy g'oyalarni va milliy madaniyatni qanday qayta tiklash va rivojlantirish muhim ekanligini tushunish imkonini beradi. Ushbu islohotlar nafaqat tilni va adabiyotni modernizatsiya qilish, balki kengroq madaniy va tarixiy kontekstda milliy identitetni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan degan xulosaga olib keladi.

An'analarga barham berish. Fitrat she'riyatda vazn va qofiya kabi an'anaviy shartlarning haddan tashqari qo'llanilishini tanqid qilib, bu uslublar aslida she'riyatning mohiyatidan chalg'itishini, eng yomoni turkiycha so'zlarga ko'p tomonlama putur yetkazishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy she'riyat tabiatdagi va inson tajribasidagi nozik tuyg'ularni ifodalay oladigan, yurakdan chiqqan so'zlar bilan boshqalarga yetkazish san'ati hisoblanadi: *Biz ham she'rni "vazn" va "qofiya"dan iborat (deb) bilib turg'ancha chin she'rg'a yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qolg'an kabi "sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko'z, gul, bulbul" singari o'n-o'n besh so'zni bilgili vazn tizib, "ol, hol, xol" kabi so'zlarni "qofiya" qilarmiz-da, o'zlarimizni she'r yozg'on atab o'tib ketarmiz. Holbukim,*

she'r boshqa. "qofiya" bilan "vazn" boshqadur. O'yla esa she'r nadur[1, b.7] , degan o'rinli savol qo'yadi. Adib, turkiycha so'zlarning arab yoki eroniycha vaznlarga tushmasligi, shoirlarimiz bu masala yechimida arabiycha yoki forsiycha so'zlardan foydalanishi yoki turkiycha so'zlarning gavdasini buzishgacha borayotganligidan kuyunadi: *Forsi(y)cha dunyoning eng o'ynoqi va nozli so'zlaridandir. "Vazn" chanbarinda teatru sahnasindag'i gizlar kabi o'ynab turadir. Turk so'zi esa, og'ir, viqorli, gavalidir. "Mafo'ylun,mafo'ylun" chanbarinda o'ynab turmoq nari tursin, vaznga kira olmaydir, sig'maydir. Eron vaznida turkcha she'r yozg'anlar iki turli ishka majbur golalar. Birinchisi, she'r orasinda ko'brak arabcha so'zlar kirguzalar. "Mafo'ylun" vaznini turkcha so'zlardang'ina to'ldura olmaylar. Ikkinchisi,vazn raiyasi bilan turkcha so'zlarning gavdasini buzarlari, eron vaznida she'r aytqon butun turk shoirlari shul iki kasalga tutilg'anlar, birortasi ham qutula olmagan. Turkcha she'rda arabcha, forsha so'zlar kirguzgan turk shoirlarimizning har holda bilgili bir yo'llari bor edi. Undan ham so'zning ma'nisini anglab o'z yerinda qo'ya(r) edilar. Hozirg'i shoirlarimiz esalar, bus-butun yo'lsiz va qoidasiz keta(r)lar.* [1, b.9] Fitratning yuqoridagi fikrlari shundan dalolatki, u turkiy so'zlarni unga butunlay begona va noqulay vaznlardan ozod qilishni, she'riyatda imkon qadar turkiy so'zlardan foydalanish, foydalanganda ham erkin qo'llash g'oyasini faol targ'ib qiladi.

Iyaruvchanliqni bas qilish. Fitrat turkiy shoirlarning iyaruvchanlig'i — taqlidga o'chligini qattiq tanqid ostiga oladi: *Turk shoirlarining musulmonliqdan so'ngra qabul qilgan vaznlari tubda arab vaznidir. Eronlilar bu vaznni arablardan qabul qilib olg'andan keyin, o'z she'rlarini o'ynoqi va nazm ruhig'a ko'ra o'zgartkanlar, isloh etkanlar. Bu kun bizning oramizdag'i "vazn" shul eronlilar tomonidan o'zgartirilgan vazndir kim, arab vaznindin biroz ayirmasi bordir. Dunyo sahnasinda "iyaruv-taqlid"ning ro'lini hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmaganidir! Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmakchi bo'lsak, o'zimizning milliy ruhimizga qaramasdan taqlid etamiz. Bir arabni o'ldirsangiz (ham) "Petrog'rad-Petraburg" demaydir. "Bitrograd-Bitrasburg" deydir. "Fransk" demaydir, "afranj" deydir va. Shundayqilib, o'z tilining istiqbolini*

saqlag'an bo'ladir. Arablarg'a iyarmak bilan maxtanib yurgan bizlar esak, arabning bu qilig'ina butun qarshi ketamiz. Tilimizg'a ko'b qofiyali arab so'zini emas, uning imlosini ham o'z so'zimizning imlosiga qarab o'zgartirmakni "farz" deb bilamiz! Eronlilar arab so'zini o'z tillarig'a qarab o'zgartirgan ekanlar, biz eronlilardan she'r vazni ostida o'z ruhini emas-da, tilimizdan chiqarg'an yerinda she'r vazni-da bo'lsa; biz she'rning o'zini olganmiz (yashasun taqlid!). Holbukim, eron vazni bilan turkcha she'r yozub turk ulusig'a o'qutmoq mumkin emasdir. [1, b.8-9] Fitrat turk madaniyatining boshqa madaniyatlardan, ayniqsa arab madaniyatidan, ko'r-ko'rona taqlid qilish tendentsiyasini tanqid qiladi. Uning fikricha, turklar boshqa millatlar madaniyati va tiliga o'z milliy ruhlarini hisobga olmasdan taqlid qilishadi, bu esa o'z til va madaniyatining istiqbolini yo'qotishga olib keladi. Fitrat, turk tilining imlo qoidalari va so'z yasalishi borasida ham mustaqillikka ega bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. U Eron misolini keltirib, eronliklar arab so'zlarini o'z tillariga moslab o'zgartirganlarini, lekin turklar esa buni qilish o'rniga she'riyatda ham, tilda ham taqlid qilishni davom ettirganlarini tanqid qiladi. Fitrat bu bayoni orqali turkiy tilning sofligini saqlash, shoirlardan arab va eroniy adabiyotiga ko'r-ko'rona iyerimaslik kerakligini uqtiradi, bu bevosita milliy-adabiy va madaniy identitetni mustahkamlash va rivojlantirish uchun juda muhim ekanligini ishoradir.

Hu Shi va Fitrat qarashlarining qiyosiy tahlili. *O'xshash jihatlar:* har ikkala adib ham til islohotlarini adabiyotni modernizatsiya qilishning zarur qismi sifatida ko'rgan. Ular, she'riyatni xalqchilashtirish va uni kengroq auditoriyaga yetkazish zarurligiga ishonishgan; Fitrat va Hu Shi milliy o'zlikni ifoda etuvchi adabiyot yaratish zarurligini ta'kidlashgan. Ular, adabiyot va tilni modernizatsiya qilish orqali milliy identitetni shakllantirish va rivojlantirishga urinishgan; Hu Shi va Fitrat, adabiyot va she'riyatni sodda, tushunarli qilish tarafdori bo'lishgan. Bu orqali ular, adabiyotni kengroq auditoriyaga yetkazishni maqsad qilishgan; *Farqli jihatlar:* Hu Shi adabiyotni sodda va demokratik qilishga e'tibor qaratgan bo'lsa, Fitrat milliy madaniy va til mustaqilligini ta'minlashga urg'u berdi; Hu Shi til islohatlarini kengroq ijtimoiy qatlamga moslashtirishga intildi, Fitrat esa ko'proq milliy

identitetni mustahkamlashga e'tibor qaratdi; Hu Shi xalq tilini adabiyotga kiritish orqali til va adabiyotni modernizatsiya qilishga harakat qildi, Fitrat turk tilining soflik va aniq foydalanishini targ'ib qildi, bu esa til va adabiyotni an'anaviy elementlardan xalos qilishga qaratilgan edi; Hu Shi G'arb ta'limotidan foydalanish orqali xitoy adabiyotini yangilashga intildi. Fitrat esa turk adabiyoti tilini arabiycha va forsiychadan xoli o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishni maqsad qildi va g'oyaviy jihatdan "yosh turk"larga ergashdi.

Xulosa. Hu Shi va Fitratning faoliyati o'z milliy adabiyotlarini yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z mamlakatlarida milliy uyg'onish va madaniy mustaqillikka intilish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ular adabiyot va tilni xalqqa yaqinlashtirish orqali kengroq auditoriyaga murojaat qilish va tilning demokratiklashuvi yo'lida harakat qilishdi;

Fitrat va Hu Shi o'z mamlakatlarida adabiyot va til islohotlariga yondashuvlari bilan muhim o'zgarishlarni ilgari surishdi. Fitratning milliy madaniyatni qayta tiklash va mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvi Hu Shining adabiyotni sodda va tushunarli qilishga qaratilgan islohotlaridan farq qiladi. Biroq, ikkalasi ham adabiyotni ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning asosiy vositasi sifatida ko'rishdi;

Hu Shi va Fitrat adabiyotda, xususan she'riyatda til islohotlarini amalga oshirish, uni xalqchil qilish orqali o'z xalqining ongini o'zgartirish va shu orqali chirigan feodal boshqaruv, har qanday yangilikka qarshi avj olgan diniy-falsafiy mutaassiblik va albatta imperialistlarga qarshi haqiqiy qarshilik inqilobini yuzaga keltirishni maqsad qilishdi.

Hu Shi va Fitratning ishlari, til va milliy identitet o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni namoyish etadi. Hu Shi xalq tilini adabiyotga olib kirish orqali til va adabiyotni umumxalqqa yaqinlashtirgan bo'lsa, Fitrat milliy tilning soflik va mustaqil rivojlanishini ta'minlashga e'tibor qaratdi. Bu esa o'z navbatida har ikkala mamlakatda ham milliy o'zlikni mustahkamlash va madaniy o'zgarishlarni rag'batlantirishga xizmat qildi;

Hu Shi va Fitratning ishlari, til va adabiyot islohotlari orqali milliy identitetni qayta qurish va madaniyatni modernizatsiya qilishning mumkinligini ko'rsatadi.

Ular adabiyot va tilga ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qismi sifatida qaraganlar va bunday yondashuvlar kelajak avlodlar uchun ham dars bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bu xulosalar, Hu Shi va Fitratning ishlarini chuqurroq tushunish va ulardan ilhomlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, turli madaniyatlarda til va adabiyot islohotlarining ta‘sirini baholashda yordam beradi.

Takliflar. Fitrat va Hu Shi misollaridan kelib chiqib, zamonaviy til islohotlari bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday loyihalar, tilni sodda va tushunarli qilish bilan birga, milliy madaniyatning noyob xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan bo‘lishi kerak;

Adabiyotni kengroq auditoriyaga olib kelish maqsadida, turli ijtimoiy qatlamlarning tiliga va madaniyatiga mos keladigan asarlarni yaratishga rag‘batlantirish. Bu orqali adabiyotning ijtimoiy integratsiyasi va ta‘limiy samaradorligini oshirish mumkin;

Fitratning milliy madaniyatni qayta tiklash bo‘yicha tajribalaridan foydalanib, yo‘qolgan yoki unutilgan milliy adabiy asarlarni qayta ko‘rib chiqish va ularni zamonaviy kontekstda tiklash. Bu, milliy identitetni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi;

Hu Shi va Fitratning ishlaridan ilhomlanib, turli madaniyatlarni o‘rganish va ular orasida adabiy va til almashinuvini rag‘batlantirish uchun xalqaro dasturlar tashkil etish. Bu orqali turli madaniyatlararo tajriba va bilim almashinuvi kengaytiriladi;

Til va adabiyot islohotlari bo‘yicha milliy va xalqaro miqyosda seminarlar va konferentsiyalar tashkil etish. Bu tadbirlar orqali sohadagi eng yangi yutuqlar, qiyinchiliklar va yechimlar muhokama qilinishi mumkin.

Bu takliflar, Fitrat va Hu Shi kabi olimlar tomonidan boshlangan islohotlarni davom ettirish va ularni yangi zamonaviy sharoitlarga moslashtirish uchun asosiy yo‘nalishlar sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat: Tanlangan asarlar. –T.: “Ma‘naviyat”, 2009, -334 b.

2. Adib Xolid: O‘zbekiston tavalludi: Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. –T.: “Akademnashr”,2022.
3. 新青年杂志. 群益书社,第 2 卷第 2 号,1916 年 10 月 01 日.
4. 陈独秀.文学革命论,独秀文存.合肥:安徽人民出版社,1987:844 页.
5. 胡适.胡适留学日记(上). 合肥:安徽教育出版社,1999:540 页.
6. 胡适.逼上梁山,胡适文集 (2) 北京: 人民文学出版社,1998:4500 页

.